

«TASDIQLAYMAN»

“UMS” MChJ bosh direktorining

texnika va AT bo'yicha o'rinbosari

Abduraxmanov A.R.

«09» 04 2026 yil



Ombor inshooti tomining yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash maqsadida ombor inshootining  
texnik holatini texnik ko'rikdan o'tkazish ishlarini xarid qilish bo'yicha

### TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent shahri  
2026-yil

## Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar.....	4
1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi.....	4
1.2 Ishlarni (xizmatlarni) xarid qilish maqsadi.....	4
1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos.....	4
1.4. Ishlar va xizmatlar ro'yxati.....	4
1.4.1. Dastlabki hujjatlarni o'rganish.....	4
1.4.2. Qurilish konstruksiyalarini ko'zdan kechirish.....	4
1.4.3. Qurilish konstruksiyalarining o'lchovini olish.....	4
1.4.4. Tom tarkibini batafsil tekshirish.....	5
1.4.5. Foto-qayd etish.....	5
1.4.6 Tekshiruv natijalariga ishlov berish va hisobot tayyorlash.....	5
2. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi.....	5
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	5
3.1 Malaka va tajriba.....	5
3.2 Malakali xodimlar.....	5
3.3 Texnik imkoniyatlar.....	5
3.4 Hujjatli tasdiq.....	5
4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar.....	6
4.1 Ishlarni bajarishni tashkil etish.....	6
4.2 Tekshiruv sifati va to'liqligi.....	6
4.3 Muhandislik hisob-kitoblari.....	6
4.4 Natijalar uchun mas'uliyat.....	6
4.5 Yakuniy hujjatlar.....	6
5. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatlari.....	6
6. Ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularning natijalari xavfsizligiga doir talablar.....	7
6.1 Umumiy xavfsizlik talablari.....	7
6.2 Obyektdagi ishlarni bajarishga doir talablar.....	7
6.3 Xodimlarga qo'yiladigan talablar.....	7
6.4 Ishlar natijalariga qo'yiladigan talablar.....	7
6.5 Xavfsizlik uchun mas'uliyat.....	7
7. Atrof-muhitni muhofaza qilishga oid talablar.....	7
8. Bajarilgan ishlarni (ko'rsatilgan xizmatlarni) topshirish va qabul qilish qoidalariga oid talablar....	7

8.1 Ishlarni topshirish tartibi .....	7
8.2 Topshiriladigan hujjatlar tarkibi .....	8
8.3 Qabul qilish tartibi .....	8
8.4 E'tirozlarni bartaraf etish .....	8
8.5 Qabul qilish uchun asos .....	8
9. Ishlar va xizmatlar natijalariga sifat kafolati muddatini ko'rsatish to'g'risidagi talablar. ....	8
9.1 Sifat kafolati.....	8
9.2 Kafolat muddati .....	8
9.3 Ijrochining kafolat muddati davomidagi majburiyatlari .....	8
9.4 Kafolat majburiyatlarining cheklanishi.....	9
10. Ijrochining ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini ijro etishi munosabati bilan yuzaga kelgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarni Buyurtmachiga o'tkazish shartlari ko'rsatilgan holdagi mualliflik huquqlari.....	9
11. Inshootga oid mutlaq huquqlarni va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi. ....	9
12. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar.....	9
13. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati:.....	9



## **1. Umumiy ma'lumotlar.**

### **1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi.**

Omborxona binosi tom qoplamasining (soyabon turidagi) yuk ko'taruvchi qurilish konstruksiyalarining haqiqiy texnik holatini, hisobiy yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash hamda o'rnatilgan quvvati 200 kVt gacha bo'lgan fotoelektr stansiyasini (FES) joylashtirish imkoniyatini baholash maqsadida texnik tekshiruv bo'yicha ishlar to'plamini bajarish. O'rnatilgan quvvati 200 kVt bo'lgan fotoelektr stansiyasini xavfsiz joylashtirish imkoni yo'qligi aniqlangan taqdirda, Ijrochi fotoelektr stansiyasining ham, bino qurilish konstruksiyalarining ham xavfsiz ishlashini ta'minlagan holda inshootga joylashtirish mumkin bo'lgan FESning maksimal ruxsat etilgan quvvatini aniqlashi va tavsiya berishi shart.

### **1.2 Ishlarni (xizmatlarni) xarid qilish maqsadi.**

Loyihaning maqsadi energiya samaradorligini oshirish, elektr energiyasini tejash va muqobil energetika texnologiyalarini keng rivojlantirishni kompleks tarzda tashkil etishdan iborat.

Mazkur obyektida fotoelektr stansiyasini o'rnatishni nazarda tutuvchi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan 2026-yil uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'molini kamaytirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar Rejasida ko'zda tutilgan energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

### **1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos.**

"Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli 2023-yil 16-fevraldagi qarori.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlari.

### **1.4. Ishlar va xizmatlar ro'yxati.**

Texnik tekshiruvni o'tkazish doirasida Ijrochi quyidagi ishlarni to'liq bajarishi shart:

#### **1.4.1. Dastlabki hujjatlarni o'rganish.**

- Taqdim etilgan loyiha, ijro, texnik va smeta hujjatlarini (agar mavjud bo'lsa) tahlil qilish;
- inshootning tuzilmaviy chizmasini o'rganish;
- avval bajarilgan ta'mirlash, mustahkamlash va konstruksiyalarga kiritilgan o'zgartirishlarni tahlil qilish;
- tekshiruv va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun dastlabki ma'lumotlarga aniqlik kiritish.

#### **1.4.2. Qurilish konstruksiyalarini ko'zdan kechirish.**

- tomning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini ko'zdan kechirish;
- tashqi belgilariga ko'ra nuqsonlarni aniqlash (zanglash, shakl o'zgarishi, shikastlanishlar, geometriya buzilishi, haddan tashqari yuklanish izlari, ulanma nuqsonlari);
- konstruksiyalarning texnik holatini dastlabki baholash.

#### **1.4.3. Qurilish konstruksiyalarining o'lchovini olish.**

- o'lchov ishlarini bajarish;
- konstruksiyalarning geometrik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- elementlarning haqiqiy o'lchamlariga aniqlik kiritish;

- konstruksiya qadamlari, oraliqlari va ulanma tugunlarini qayd etish;
- keyingi hisob-kitoblar uchun o'lchov chizmalarini tuzish.

#### **1.4.4. Tom tarkibini batafsil tekshirish.**

- tomning tuzilmaviy chizmasini aniqlash;
- tuzilmaviy xususiyatlarini aniqlash;
- tom qoplamasi elementlarining holatini tahlil qilish;
- yuk ko'tarish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi nuqsonlarni aniqlash;
- FES uskunasi o'rnatish mumkin bo'lgan joylarni belgilash.

#### **1.4.5. Foto-qayd etish**

- konstruksiyalarning umumiy holatini tanlab foto-qayd etish;
- nuqson va shikastlanishlarni suratga olish (mavjud bo'lsa);
- birikma tugunlari va o'ziga xos tuzilmaviy elementlarni (tanlama) qayd etish.

#### **1.4.6 Tekshiruv natijalariga ishlov berish va hisobot tayyorlash**

- olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- konstruksiyalarning texnik holati to'g'risida xulosalar shakllantirish;
- tekshiruv natijalari bo'yicha texnik hisobot tayyorlash;

### **2. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi.**

- O'zbekiston, Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy.

### **3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.**

Texnik tekshiruv ishlarini bajarishga da'vogar ishtirokchi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

#### **3.1 Malaka va tajriba**

- metall qurilish konstruksiyalarini (tomlar, ayvonlar, ishlab chiqarish yoki ombor binolarini) tekshirish bo'yicha shunga o'xshash ishlarni bajarishda (kamida 1 yillik) tajribaga egalik.

#### **3.2 Malakali xodimlar**

Ijrochi quyidagi mutaxassislarni taqdim etishi kerak:

- kamida 3 yillik ish tajribasiga ega muhandis-konstruktor (hisobchi);
- qurilish konstruksiyalarini tekshirish bo'yicha mutaxassis;
- instrumental o'lchov va tekshiruvlarni bajaruvchi mutaxassislar.

#### **3.3 Texnik imkoniyatlar**

- tekshiruv va o'lchov ishlari uchun zarur uskunalarning mavjudligi;
- suratga olish vositalarining mavjudligi.

#### **3.4 Hujjatli tasdiq**

Buyurtmachining talabiga binoan Ijrochi quyidagilarni taqdim etadi:

- mutaxassislarning malakasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- shunga o'xshash ishlardagi tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- muhandislik ishlarini bajarish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (bino va inshootlarning texnik holatini tekshirishni amalga oshirish uchun litsenziya) (zarur bo'lganda).



#### **4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar.**

Ijrochi ishlarning amaldagi me'yoriy hujjatlar va mazkur texnik topshiriq talablariga muvofiq bajarilishini ta'minlashi shart.

##### **4.1 Ishlarni bajarishni tashkil etish**

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- tekshiruvni bajarish;
- kerakli yo'nalishdagi mutaxassislarni jalb qilish;
- ishlarni bajarishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablariga rioya etish;
- tekshiruv o'tkazish sanalarini Buyurtmachi bilan oldindan kelishib olish.

##### **4.2 Tekshiruv sifati va to'liqligi**

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- barcha asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning to'liq tekshirilishini ta'minlash;
- tomning haqiqiy yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash uchun yetarli hajmda ish bajarish;
- ishonchli tekshirish va o'lchash usullaridan foydalanish;
- hisob-kitoblarda amaldagi me'yoriy hujjatlarni qo'llash.

##### **4.3 Muhandislik hisob-kitoblari**

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- konstruksiyalarning yuk ko'tarish qobiliyatini hisob-kitob qilish;
- amaldagi yuklamalarni (o'zining og'irligi, qor, shamol, ekspluatatsion yuklamalar) hisobga olish;
- fotoelektr stansiyasini joylashtirishdan yuzaga keladigan qo'shimcha yuklamalarni hisobga olish;
- tomga tushadigan ruxsat etilgan qo'shimcha yuklamani aniqlash.

##### **4.4 Natijalar uchun mas'uliyat**

Ijrochi quyidagilar uchun mas'uldir:

- tekshiruv natijalarining haqqoniyligi;
- bajarilgan hisob-kitoblarning to'g'riligi;
- texnik xulosada keltirilgan xulosalar va tavsiyalarining asoslilikligi.

##### **4.5 Yakuniy hujjatlar**

Ijrochi ushbu texnik topshiriqda nazarda tutilgan hajmda hisobot taqdim etishi shart, jumladan:

- matnli qism (muhandislik tavsifi, xulosalar, hisob-kitoblar sharhi);
- hisob-kitob qismi;
- chizmalı materiallar (konstruksiya andozasi, yuklamalar tushadigan joylar, fotoelektrik panellarni joylashtirish uchun tavsiya etilgan hududlar chizmasi);
- fotomuhslash;
- texnik xulosa.

#### **5. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatlari.**

Ishlarni bajarishning umumiy muddati 60 kalendar kunni tashkil etadi.

## **6. Ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularning natijalari xavfsizligiga doir talablar.**

### **6.1 Umumiy xavfsizlik talablari**

Ijrochi ishlarni quyidagi talablarga rioya qilgan holda bajarishi shart:

- mehnatni muhofaza qilishning amaldagi me'yorlari;
- qurilish va tadqiqot ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalari;
- yong'in xavfsizligi talablari;
- balandlikda ishlash chog'idagi xavfsizlik talablari.

### **6.2 Obyektdagi ishlarni bajarishga doir talablar**

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- tomda va yuk ko'taruvchi konstruksiyalarda ishlarning xavfsiz tashkil etilishini ta'minlash;
- soz holatdagi shaxsiy himoya vositalaridan (ShHV) foydalanish;
- balandlikda ishlarni bajarishda ehtiyotlovchi tizimlarni qo'llash;
- tekshiruv hududlariga xavfsiz kirish imkoniyatini ta'minlash;
- mavjud konstruksiyalar va tom qoplamasiga shikast yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

### **6.3 Xodimlarga qo'yiladigan talablar**

Ishlarni bajarishga quyidagi mutaxassislariga ruxsat etiladi:

- xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomadan o'tgan;
- (zarur hollarda) balandlikda ishlashga ruxsatnomasiga ega bo'lgan;
- zarur himoya vositalari bilan ta'minlangan.

### **6.4 Ishlar natijalariga qo'yiladigan talablar**

Bajarilgan ishlarning natijalari quyidagilarga javob berishi kerak:

- inshootdan keyinchalik foydalanish uchun xavfsiz bo'lishi;
- konstruksiyalarning texnik holati yomonlashishiga olib kelmasligi;
- tekshiruv jarayonida yuk ko'taruvchi elementlar va tomning shikastlanishiga yo'l qo'ymasligi.

### **6.5 Xavfsizlik uchun mas'uliyat**

Ijrochi quyidagilar uchun mas'uldir:

- ishlarni bajarishda xavfsizlik talablariga rioya etilishi uchun;
- o'z xodimlarining hayoti va sog'lig'i uchun;
- Ijrochining aybi bilan konstruksiyalarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun.

## **7. Atrof-muhitni muhofaza qilishga oid talablar.**

O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonunchiligi, normalari, qoidalari va standartlarida nazarda tutilgan talablar.

## **8. Bajarilgan ishlarni (ko'rsatilgan xizmatlarni) topshirish va qabul qilish qoidalariga oid talablar.**

### **8.1 Ishlarni topshirish tartibi**

Ishlar bajarib bo'lingach, Ijrochi Buyurtmachiga texnik tekshiruv natijalarini ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiq to'liq hajmda topshiradi.



## **8.2 Topshiriladigan hujjatlar tarkibi**

Ijrochi Buyurtmachiga tekshiruv natijalari bo'yicha texnik hisobotni topshiradi. Hisobotda quyidagilar bo'lishi kerak:

- hisob-kitob qismi (yuk ko'tarish qobiliyati hisob-kitoblari);
- grafik materiallar (konstruksiya modeli, yuklamalar tushadigan joylar, fotoelektrik panellarni joylashtirish uchun tavsiya etiladigan hududlarning chizmasi);
- konstruksiyalar va aniqlangan nuqsonlarning fotosuratlarini;
- tavsiyalar (zarur bo'lsa — konstruksiyalarni mustahkamlash bo'yicha).

Hujjatlar quyidagi ko'rinishda taqdim etiladi:

- elektron shaklda (PDF formatida);
- tahrirlanadigan formatda (Word/Excel);
- elektron tashuvchida yoki ma'lumotlarni elektron uzatish vositasida;
- qog'oz tashuvchida (hujjat nusxasi Ijrochi tomonidan imzolanishi va tasdiqlanishi lozim).

## **8.3 Qabul qilish tartibi**

- Buyurtmachi taqdim etilgan materiallarni ular topshirilgan paytdan e'tiboran 5 ish kuni ichida ko'rib chiqadi;
- e'tirozlar bo'lmasa, bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi;
- e'tirozlar mavjud bo'lganda, Buyurtmachi ularni bartaraf etish uchun Ijrochiga e'tirozlar ro'yxatini yuboradi.

## **8.4 E'tirozlarni bartaraf etish**

Agar e'tirozlar mazkur texnik topshiriqda nazarda tutilgan ishlar hajmiga tegishli bo'lsa, Ijrochi Buyurtmachining e'tirozlarini qo'shimcha to'lovsiz bartaraf etishi shart.

## **8.5 Qabul qilish uchun asos**

Ishlar quyidagilardan so'ng bajarilgan deb hisoblanadi:

- hujjatlarning to'liq to'plami topshirilgach;
- tomonlar bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolagach.

## **9. Ishlar va xizmatlar natijalariga sifat kafolati muddatini ko'rsatish to'g'risidagi talablar.**

### **9.1 Sifat kafolati**

Ijrochi bajarilgan ishlarning sifatiga va texnik tekshiruv natijalarining haqqoniyligiga, shuningdek, qabul qilingan dastlabki ma'lumotlar hamda amaldagi me'yoriy talablar doirasida inshootning o'ziga kafolat beradi.

### **9.2 Kafolat muddati**

Texnik tekshiruv natijalarining kafolat muddati cheklanmagan.

### **9.3 Ijrochining kafolat muddati davomidagi majburiyatlari**

Kafolat muddati davomida Ijrochi quyidagilarga majbur:

- hisobot hujjatlarida aniqlangan kamchiliklarni bepul bartaraf etish;
- Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanganda hisob-kitoblarga tuzatishlar kiritish;



#### 9.4 Kafolat majburiyatlarining cheklanishi

Kafolat majburiyatlari quyidagilarga tatbiq etilmaydi:

- texnik ko'rik o'tkazilganidan so'ng, Ijrochi bilan kelishilmagan holda inshootning texnik holatini o'zgartirishga;
- FES montaj qilinishidan oldin yuzaga kelgan konstruksiyaviy shikastlanishlarga;
- Ijrochining ishtirokisiz amalga oshirilgan obyektning yuklamalari yoki konstruktiv chizmasidagi o'zgartirishlarga.

#### 10. Ijrochining ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini ijro etishi munosabati bilan yuzaga kelgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarni Buyurtmachiga o'tkazish shartlari ko'rsatilgan holdagi mualliflik huquqlari.

Ijrochi texnik ko'rikni amalga oshirishda quyidagilarga majburdir:

- intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq qonunchilik talablariga rioya qilishga;
- Buyurtmachining bajarilgan ishlar natijalaridan, jumladan Ijrochi tomonidan tayyorlangan texnik yechimlar, hisob-kitoblar, chizmalar va boshqa materiallardan foydalanishiga to'sqinlik qiladigan uchinchi shaxslarning mutlaq huquqlari yo'qligini Buyurtmachiga kafolatlashga;
- ishlarni bajarish davomida olingan texnik natijalar, xulosalar va materiallarni Buyurtmachining yozma roziligisiz e'lon qilish, topshirish yoki tarqatishdan tiyilishga;
- ishlar doirasida huquqiy muhofaza salohiyatiga ega bo'lgan natijalarni himoya qilish choralarini ko'rishga, bunda bunday natijalar aniqlanganligi va ko'rilgan choralar to'g'risida Buyurtmachini majburiy tartibda xabardor qilishga;
- Buyurtmachiga obyektning keyinchalik loyihalashtirish, qurish, ishlatish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan hajmda ishlar natijalaridan foydalanish huquqini topshirish.

#### 11. Inshootga oid mutlaq huquqlarni va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi.

Talab etilmaydi

#### 12. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar.

Talab etilmaydi

#### 13. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati:

1-jadval

T/r	Qisqartma	Qisqartmaning to'liq shakli
1	TT	Texnik topshiriq
2	FES	Fotoelektrik stansiya
3	PV/PV	Fotoelektrik (quyosh) modullari
4	ShHV	Shaxsiy himoya vositalari
5	BN	Buzmaydigan nazorat
6	QT	Qoidalar to'plami
7	QNQ	Qurilish normalari va qoidalar
8	ShNQ	Shaharsozlik normalari va qoidalar

9	QMQ	Qurilish me'yorlari va qoidalari
10	EQTQ	Elektr qurilmalarining tuzilish qoidalari
11	TEQQ	Texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari
12	IKH	Ishchi konstruktorlik hujjatlari

### Ilovalar.

Fayl turi: PDF

Ayvon qurilishining LHsi, KM bo'limi.

Kelishildi:

F.I.O.

Tarmoqdan foydalanish departament  
direktori

B.X.Usmanov

Tarmoqdan foydalanish departament  
direktor o'rinbosari

D.A. Atametov

Bosh energetik

Y.S. Karabayev

Bosh energetik o'rinbosari

B.B. Tulyaganov

ET (energiya tizimlari), AKB va  
FES texnik xizmat ko'rsatish  
guruhining rahbari.

V.O. Omarov

Ishlab chiqildi:

ET (energiya tizimlari), AKB va  
FES texnik xizmat ko'rsatish  
guruhining yetakchi mutaxassisi

A.A. Kayumov